



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **LINGVOMADANIY KODLAR TAHLILI (BIOMORF LINGVOMADANIY KODLAR MISOLIDA)**

**Narmurodova Gulnoza**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Mazkur ilmiy tahlil lingvomadaniyatshunoslik ilmi, ushbu sohada ahamiyatli hisoblangan lingvomadaniy kodlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, biomorflar ya'ni antropomorf, fitomorf, zoomorflarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, axborot saqlash, uzatish va qayta ishlashda vosita bo'luvchi shartli belgilar hisoblangan kodlar hamda raqamli lingvomadaniy kodlar tahlili badiiy adabiyot materiallari, maqol va topishmoqlar asosida tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy kodlar, biomorf, fitomorf, antropomorf, zoomorf, raqamli lingvomadaniy kodlar, lingvomadaniy birliklar..

## **АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ КОДОВ (НА ПРИМЕРЕ БИОМОРФНЫХ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ КОДОВ)**

**Нармуродова Гульноза**

Узбекский государственный университет мировых языков, доцент (PhD)

### **Аннотация**

Данный научный анализ посвящен изучению лингвокультурных кодов, имеющих важное значение в данной области, и освещает специфические особенности биоморфов, а именно антропоморфных, фитоморфных и зооморфных. Также на основе литературных материалов, пословиц и загадок изучается анализ кодов, представляющих собой условные знаки, служащие средством хранения, передачи и обработки информации, и цифровых лингвокультурных кодов.

**Ключевые слова:** лингвокультурные исследования, лингвокультурные коды, биоморфные, фитоморфные, антропоморфные, зооморфные, цифровые лингвокультурные коды, лингвокультурные единицы.

## **ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL CODES (ON THE EXAMPLE OF BIOMORPHIC LINGUOCULTURAL CODES)**

**Narmurodova Gulnoza**

Uzbekistan State World Languages University, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

This scientific analysis is devoted to the analysis of linguocultural codes, which are considered significant in this field, and the specific features of biomorphs, namely anthropomorphic, phytomorphic, zoomorphic, are highlighted. Also, the analysis of codes, which are conditional signs that serve as a means of storing, transmitting, and processing information, and digital linguocultural codes, is studied on the basis of literary materials, proverbs, and riddles.

**Keywords:** linguocultural studies, linguocultural codes, biomorphic, phytomorphic, anthropomorphic, zoomorphic, digital linguocultural codes, linguocultural units.

Zamonaviy tilshunoslikda taraqqiy etayotgan, tadqiqotchilar tahlil materialining obyektiga aylangan sohalardan biri bu — lingvomadaniyatshunoslik sohasidir.

Lingvomadaniyatshunoslik ilmi — tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tilda milliy madaniyatning aks etishi va mustahkam oʻrnashib olishini tadqiq etuvchi sohalar toʻqnashgan nuqtada paydo boʻlgan tilshunoslik tarmogʻidir. Shuningdek, lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasi boʻlib, madaniyat va tilning oʻzaro aloqasini, oʻzaro taʼsirini, tilda oʻz aksini topgan xalq madaniyatining koʻrinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida oʻrganadi. Mazkur fan doirasida leksik darajadagi til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslik tarkibiy qismlari va madaniy maʼnolar oʻrganiladi. Maʼlumki, bu borada koʻplab jahon va oʻzbek tilshunos olimlari oʻz tadqiqotlarini olib borgan va bugungi kunda ham bu izlanishlar davom etmoqda. Dunyo tilshunosligida nazariyotchi olim sifatida eʼtirof etiladigan V. fon Gumboldt oʻz gʻoyalarida xalqning ruhiyati uning tilida namoyon boʻlishini hamda millatning xarakterini uning xulq-atvori, odobi, xatti-harakatlaridagina emas, balki tilidan bilish osonroq ekanligini taʼkidlaydi.

Mazkur soha rivojida rus tilshunoslik maktablari faoliyati ham ahamiyatlidir. Xususan, V.N. Teliya, V.V. Vorobyov, N. Alefirenkolarning gʻoyalari umumlashmasida lingvokulturologiyani muayyan yoʻl bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini oʻrganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, taʼlimning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini taʼminlaydigan yangi filologik fan sifatida anglash mumkin boʻladi.

Lingvomadaniyatshunoslik rivojini oʻzbek tilshunosligida ham qator ilmiy tadqiqotlar, olimlarning ilmiy gʻoyalari, monografik va dissertatsion ishlarida koʻrishimiz mumkin. D.S. Xudoyberganova mazkur terminning ilmiy izohiga toʻxtalar ekan, “Lingvokulturologiya — (lot. lingua — til + lot. cultura — ishlov berish + grek. logia — taʼlimot) tilshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan oʻzaro aloqasi va taʼsirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida oʻrganuvchi fan”, deya taʼriflaydi. Olima “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomi ostida nashr qilgan ilmiy monografiyasida pretsedent birliklar va ularning matnda qoʻllanilish tahlilini amalga oshiradi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ilmiy tahlilni amalga oshirish jarayonida sinxron tadqiqot metodlari sirasiga kiruvchi lingvistik tavsiflash metodidan, komponent tahlil usulidan, kontekstual tahlil, valentlik tahlili hamda lingvomadaniy kodlar tahlilida lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tahlilga tortilayotgan mavzu ham aynan lingvomadaniy kodlar xususida boʻlib, dastavval lingvomadaniy kod tushunchasi tahliliga urgʻu berishimiz joizdir. D.S. Xudoyberganova “Zamonaviy tilshunoslik terminlari” izohli lugʻatida lingvomadaniy kodlar madaniy kodning verballashgan shakli ekanligini taʼkidlaydi. Anglashiladiki, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, zehni va tafakkuri til vositasidan foydalanuvchilarning nutqida namoyon boʻladi. Kodlarda yashirin maʼno saqlanganligi uchun tinglovchida aksariyat hollarda anglashilmovchilik vujudga kelishi tabiiydir.

Lingvomadaniy kodlar — inson tafakkuri va madaniy tajribasining tildagi aksidir. Lingvomadaniy kodlar topishmoqlarda, badiiy matnda, lingvopoetikada ham qoʻllanilishi mumkin va kodlar vositasida real hayotdagi predmet va hodisalar ramziy, oʻxshatma, qiyoslash yoki metafora asosida ifodalanadi. Lingvomadaniy kodlar asosini tashkil qiluvchi biomorflar oʻz ichida antropomorf, fitomorf va zoomorflarga tasniflanadi.

**Antropomorf lingvomadaniy kod** bu — muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan odam yoki unga tegishli harakat va xususiyatlarni anglatuvchi soʻzlar, lisoniy birliklardir. Oʻzbek tilida antropomorf lingvomadaniy kodlar qoʻllanilishiga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

- *Shum kampir, shumaloq kampir, ikki beti yumaloq kampir.* (Tandir) Berilgan topishmoqda

**kampir** leksemasi kod sifatida qoʻllanmoqda.

- *Eshik ortida beli bogʻliq qul yotar.* (Supurgi) Mazkur misolda **qul** antropomorf sifatida qoʻllanmoqda.
- *Yoʻrgaklangan malikam, tilla sochi bir tutam.* (Makkajoʻxori) Berilgan topishmoqda **malikam** soʻzi kod sifatida kelmoqda.
- *Bir onadan yuz bola, yuzovi ham boʻz bola.* (Uzum) Tahlilga tortilgan ushbu topishmoqda **ona** va **bola** antropomorf sifatida qoʻllangan.

**Fitomorf lingvomadaniy kodlar** — oʻsimliklar dunyosiga (bogʻbonchilik, bogʻdorchilik, dehqonchilik) tegishli tushunchalarni anglatuvchi, milliy-madaniy jihatdan verbal usulda kodlashtirilgan soʻzlar yoki leksik birliklardir. Oʻsimlik nomi ostida yashirin maʼno ifodalanishi asnosida fitomorfilar vujudga keladi. Masalan:

- *Bir qop yongʻoq* — mazkur misolda hajm jihatidan yongʻoq miqdori emas, balki toʻla vazndagi ayol obrazi gavdalanirilmogda.
- *Sholgʻomdek qizarmoq* — uyatdan izza boʻlgan, mulzam, hijolatli vaziyatda qolgan inson holati tasvirlanmogda.
- *Tutdek toʻkilmog* va boshqalar.

Bu turdagi kodlarda predmetlar va hodisalar inson harakati, tashqi koʻrinishi, xatti-harakati yoki holatlari bilan qiyoslanadi. Bu usul orqali insoniyat borliqini oʻziga xos qiyoslash asosida anglagan.

**Zoomorf lingvomadaniy kod** tahliliga eʼtibor bersak, zoomorf kod — bu muayyan madaniy axborotni verbal usulda kodlashtirishda milliy-madaniy jihatdan hayvonot dunyosiga tegishli tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar yoki leksemalarni ifodalovchi biomorf kodlardir. Yaʼni mazkur kodlarda inson va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlik aks etadi.

- *Ot tepkisini ot koʻtaradi.*
- *Toyim bor, kishnamaydi, yoz chogʻi ishlamaydi.*
- *Temir qoʻrgʻon ichida qizil toychoq oʻynaydi.*

Tahlilga tortilgan misollarda **ot**, **toyim**, **toychoq** soʻzlari zoomorf sifatida qoʻllanilib, denotativ emas, balki konnotativ maʼno ifodalaganligi uchun ham zoomorf sifatida baholanadi.

Lingvomadaniy kodlar orasida **raqamli lingvomadaniy kodlar** mavjud boʻlib, mazkur kodlarda raqamlar orqali xalqning urf-odat va anʼanalari aks etadi. Mazkur urf-odatlar sirasiga oʻzbek madaniyatida ahamiyatli hisoblangan taʼziya va toʻy marosimlarini kiritishimiz mumkin. Oʻzbek anʼanalari **toʻqqiz-toʻqqiz** bir vaqtning oʻzida oddiy toʻqqiz raqamini ifodalasa, ikkinchi bir vaqtda toʻqqiz toʻy marosimi sifatida qoʻllaniladi. Raqamli lingvomadaniy kodlar taʼziya marosimida ham keng qoʻllaniladi. Masalan: **uchi**, **yettisi**, **yigirmasi**, **qirqi**, **ellik-oltisi**, **yili** kabi marosimlar fikrimiz asosidir.

**Yettisi** — bu marosim oʻzbek milliy madaniyatida inson vafotining toʻrtinchi kuni oʻtkaziladigan marosim hisoblanadi. Oʻzbekiston hududining baʼzi joylarida esa vafotning yettinchi kuni oʻtkaziladigan maʼrakadir.

*U Habiba buvining kir yuvdisi, yettisi yelib-yugurib xizmat qildi. Maʼrakaga borganida oyogʻi olti, qoʻli yetti boʻlib yuradi-yu, uyga kelganda yana gʻalati boʻlib qoladi.*

(Oʻtkir Hoshimov, **Dunyoning ishlari**, 82-bet)

**Yigirmasi** — bu marosim inson vafot etganidan keyin yaqinlari va oila aʼzolari tomonidan oʻn yettinchi yoki oʻn toʻqqizinchi kuni oʻtkaziladigan marosim hisoblanadi.

- *Rahmat... Bir koʻrib ketay dedim...*

- *Yaxshi qilibsiz, — aya shunday dedi-yu, kuyovining kelishi bejiz emasligini sezdi.*

- *Nima, yigirma oʻtkazasizlarmi? — U qoshlarini chimirdi, aftidan jahli chiqqan edi. —*

*Muncha tez?*

- *Yoʻq, yigirmani hali oʻylaganimiz yoʻq. Men...*

*Ubaydulla aka imo bilan kuyovini toʻxtatdi, oʻzim aytaman, degandek unga imlab qoʻydi.*

(O‘lmas Umarbekov, **Yoz yomg‘iri**, 56-bet)

**Qirqi** — kishi vafotidan keyin o‘ttiz yettinchi yoki o‘ttiz to‘qqizinchi kuni o‘tkaziladigan marosim bo‘lib, o‘zbek milliy madaniyatida va dinida ushbu kunda o‘lik tanasi butkul chiriydi va tuproqqa aylanadi, deb hisoblanadi. Bu marosimda ham xalqqa ehsonlik dasturxonini yoziladi va marhum haqqiga duo o‘qiladi. Bu marosim o‘zbek xalqi madaniyatida uzoq yillar davomida saqlanib kelinadi.

*Bir kuni dadam yangi gap topib keldi. Ermon buva kampirining qirqida ham yurtga osh berarmish. Odamlar o‘rtaga tushib yo‘ldan qaytarmoqchi ekan, ko‘nmabdi. “Qirq degani xotinlarning ma‘rakasi bo‘ladi. Kampirinning arvohi shod bo‘lsin”, debdi.* (O‘tkir Hoshimov, **Dunyoning ishlari**, 83-bet)

Raqamli lingvomadaniy kodlar o‘zbek urf-odat va an‘analarida keng tarqalgan bo‘lib, xalqning turmush tarzida, kundalik hayotida ahamiyatga ega bo‘lgan raqamlar va belgilar hisoblanadi. O‘zga millat vakili uchun izoh talab etadigan birliklar ham aynan raqamli lingvomadaniy kodlar sirasiga kiradi.

### **XULOSA**

Lingvomadaniyatshunoslik ilmidagi lingvomadaniy birliklar, lingvokulturemalar, urf-odat va qadriyatlar, lingvomadaniy kodlar tahlili dolzarblik kasb etadi. Har bir lingvomadaniy birlik muqarrar ravishda lingvistik dunyoqarashni, dunyoning madaniy modeli kabi tushunchalarni farqlash muammosiga ham ta‘sir qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar va tadqiqot materiallaridan anglashiladiki, tilning leksik qatlami topishmoqlar, maqollar va badiiy adabiyot materiallaridan tashkil topgan bo‘lib, ularda fitomorflar, zoomorflar va raqamli lingvomadaniy kodlar namoyon bo‘ladi. Zero, xalqning turmush tarzi, yashash muhiti, milliy ruhi uning ijod namunalarida aks etadi. Shuningdek, til materialida xalqning mental xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘lishi o‘rganildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Alefirenko N. F. Lingvokulturologiya. Tsennostno-smyslovoe prostranstvo yazyka: o‘quv qo‘llanma. – M.: Nauka, 2010. – B. 21.
2. Vorobyev V. V. Lingvokulturologiya // Teoriya i metody. – M.: Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti nashriyoti, 1997. – B. 331.
3. Gumboldt V. Izbrannye trudy po yazykoznaniiyu. – M.: Progress, 1984. – B. 68.
4. Teliya V. N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. – M.: Yazyki russkoy kultury, 1996. – B. 222.
5. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 162 b.
6. Xudoyberganova D. S. Zamonaviy tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati. – T.: Bookmany print, 2024. – 46 b.
7. Umarbekov O‘lmas. Yoz yomg‘iri: qissa. – T. – B. 56.
8. Hoshimov O‘tkir. Dunyoning ishlari. – T.: Sharq, 2005. – B. 82–83.

## “OYIMTILLA” VA “BONU” ROMANLARIDA AYOL TAQDIRI

**Mamatova Dilorom**

Qarshi davlat texnika universiteti, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizi va Iqbol Mirzo asarlari – “Oyimtilla” va “Bonu” romanlarida ayol taqdiri va gender muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asarlardagi ayol qahramonlar hayoti, ularning oiladagi o‘rni, tarbiya va milliy mentalitet bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Ishda o‘zbek va ingliz adabiyoti kontekstida ayol obrazining badiiy talqini va jamiyatdagi roli muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Oyimtilla, Bonu, ayol taqdiri, gender muammosi, oila, tarbiya, milliy mentalitet

## ЖЕНСКАЯ СУДЬБА В РОМАХ «ОЙИМТИЛЛА» И «БОНУ»

**Маматова Дилором**

Каршинский государственный технический университет, преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье анализируется судьба женщин и гендерные проблемы в романах «Ойимтилла» Зульфийи Куролбой кизи и «Бону» Икбола Мирзо. В исследовании рассматривается жизнь женских персонажей, их роль в семье, связь воспитания с национальным менталитетом. Обсуждается художественное изображение женщин и их социальная роль в контексте узбекской и английской литературы.

**Ключевые слова:** Ойимтилла, Бону, судьба женщин, гендерные проблемы, семья, воспитание, национальный менталитет

## THE FATE OF WOMEN IN THE NOVELS “OYIMTILLA” AND “BONU”

**Mamatova Dilorom**

Karshi State Technical University, Lecturer

### **Abstract**

This article analyzes the fate of women and gender issues in the novels “Oyimtilla” by Zulfiya Qurolboy qizi and “Bonu” by Iqbol Mirzo. The study examines the lives of female characters, their role in the family, and the connection between upbringing and national mentality. The artistic representation of women and their social roles is discussed within the context of Uzbek and English literature.

**Keywords:** Oyimtilla, Bonu, fate of women, gender issues, family, upbringing, national mentality

Adabiyotda ayol obrazini tadqiq etish masalasi zamonaviy fan diqqat markazida turibdi. Ayol qahramonlarning taqdiri, ularning jamiyatdagi o‘rni va oiladagi roli nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham muhim hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek adabiyoti misolida ayol taqdiri turlicha ifodalanadi: ingliz adabiyotida ayolning individual huquqlari, erkinligi va shaxsiy tanlovlari ko‘proq markazga qo‘yilsa, o‘zbek adabiyotida oilaviy qadriyatlar, milliy mentalitet va tarbiya unsurining roli ko‘zga tashlanadi.

Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizi va Iqbol Mirzo asarlari — “Oyimtilla” va “Bonu” — misolida gender muammosi va ayol taqdiri o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi ikki asardagi

ayol qahramonlarning hayoti, ularning oiladagi o'zni va tarbiyaviy konteksti orqali milliy mentalitetning ta'sirini ochib berishdir. Shuningdek, maqolada ayol obrazining badiiy talqini va jamiyatdagi roli, o'zbek va ingliz madaniyati farqlari bilan bog'liq jihatlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari nafaqat adabiy tahlil, balki gender masalalari va milliy mentalitetni o'rganish borasida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega [1; 36-b.].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tadqiqotda ishlatilgan adabiyotlar tahlili ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchisi, o'zbek adabiyotidagi ayol obrazlari va gender masalasi bo'lsa, ikkinchisi ingliz adabiyotidagi shaxsiy huquqlar va ayol taqdiri konsepsiyasidir. "Oyimtilla" (Zulfiya Qurolboy qizi) va "Bonu" (Iqbol Mirzo) [2; 120-b.] romanlarida ayol qahramonlar hayoti, ularning oiladagi o'zni, tarbiya va milliy mentalitet bilan bog'liqligi o'rganildi. Shu bilan birga, ingliz adabiyotidagi epik va romantik an'analar orqali ayol obrazining erkinlik va shaxsiy tanlovlari talqini bilan solishtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi integrativ yondashuvga asoslangan. Quyidagi usullar qo'llanildi:

1. **Matnni tahlil qilish (textual analysis):** roman matnlari orqali ayol qahramonlarning xarakteri, qaror qabul qilish jarayoni va jamiyat bilan aloqasi o'rganildi [3; 48–57-b.].
2. **Taqqosiy tahlil (comparative analysis):** "Oyimtilla" va "Bonu" romanlaridagi ayol taqdiri va gender masalalari ingliz adabiyoti qadriyatlarini bilan solishtirildi.
3. **Sotsiokultural kontekst tahlili:** ayol obrazining milliy mentalitet, oila va tarbiya bilan bog'liqligi o'rganilib, ijtimoiy-psixologik jihatlar tahlil qilindi.
4. **Badiiy-metodik yondashuv:** qahramonlar hayoti va ular bilan bog'liq konfliktlar adabiy tahlil metodlari orqali chuqur o'rganildi.

Ushbu metodologiya yordamida maqola ikki asardagi ayol qahramonlarning taqdiri, oilaviy va ijtimoiy konteksti, shuningdek, gender va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniq va tizimli tarzda tahlil qilish imkonini berdi [4; 89–92-b.].

**Muhokama.** "Oyimtilla" va "Bonu" romanlarida ayol taqdiri va gender masalalari har ikki asarda o'ziga xos badiiy talqin bilan ifodalangan. "Oyimtilla"da Zulfiya Qurolboy qizi ayol qahramon hayotini milliy qadriyatlar, oilaviy tarbiya va jamiyat kutgan rollar kontekstida tasvirlaydi. Ayolning oila va jamiyat oldidagi majburiyatlarini uning shaxsiy erkinligi va tanlovlarini cheklashga olib keladi, bu esa qahramonning ichki konfliktini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, "Bonu" romanida Iqbol Mirzo qahramonlarining shaxsiy huquqlari va erkinliklarini ko'proq ta'kidlaydi. Ayol obrazining jamiyatdagi roli va oila bilan bog'liqligi ham markaziy o'rinda turadi, ammo u o'z xohishi va qarorlarini amalga oshirishga intiladi. Bu ikki asar orqali ingliz va o'zbek adabiyoti mentalitetidagi farqlar aniq ko'zga tashlanadi: ingliz adabiyotida individualizm va shaxsiy tanlov, o'zbek adabiyotida esa milliy mentalitet va tarbiyaviy qadriyatlar asosiy rol o'ynaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ayol taqdiri va gender masalasi o'rganilganda nafaqat qahramonlarning shaxsiy xatti-harakatlari, balki ularning jamiyat, oila va milliy qadriyatlar bilan bog'liqligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, "Oyimtilla" va "Bonu" romanlari orqali ayol qahramonlarning turli ijtimoiy va madaniy sharoitlarda shakllanishi, ularning shaxsiy erkinligi va ijtimoiy majburiyatlarini o'rganiladi [5; 95–96-b.].

Muhokama davomida, shuningdek, gender muammosining badiiy talqini va milliy mentalitet bilan uzviy bog'liqligi aniqlanadi. Bu esa ayol obrazini chuqurroq tahlil qilishga, shaxsiy erkinlik va jamiyat kutgan rollar o'rtasidagi qarama-qarshilikni ochib berishga yordam beradi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Oyimtilla" va "Bonu" romanlarida ayol taqdiri va gender masalalari turlicha ifodalanadi.

1. **Ayol qahramonlarning oiladagi o'zni:** "Oyimtilla" romanida ayol qahramonlar oilaviy majburiyat va milliy qadriyatlar bilan cheklangan bo'lsa, "Bonu"da qahramonlar oilaviy va jamiyat qoidalariga bo'ysunsa-da, shaxsiy tanlovlarini amalga oshirishga intiladi [6; 45–

53-b.].

2. **Milliy mentalitet va tarbiya:** Ikkala asarda ham tarbiya va milliy mentalitet ayol taqdiri shakllanishida muhim rol o'ynaydi. "Oyimtilla"da milliy qadriyatlar ayolni jamiyatning kutgan roli bilan bog'lasa, "Bonu"da esa qadriyatlar shaxsiy erkinlik bilan muvozanatlashadi.
3. **Ayolning shaxsiy erkinligi:** "Bonu" romanida ayol qahramonning shaxsiy erkinligi va qaror qabul qilish qobiliyati ko'proq ta'kidlangan bo'lsa, "Oyimtilla"da ayol qahramonlar jamiyat va oilaviy majburiyatlar bilan chegaralangan [7; 344–347-b.].
4. **Gender muammosining badiiy talqini:** Ikkala roman ham gender muammosini badiiy vositalar orqali ochib beradi: qahramonlarning ichki dunyosi, qarama-qarshiliklari va shaxsiy tajribasi orqali. Bu esa ayol obrazining chuqur tahlil qilinishiga imkon yaratadi [8; 17–22-b.].

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, ayol taqdiri va gender muammosi har bir milliy madaniyat kontekstida o'ziga xos ifodalanadi, ammo ularning umumiy jihati — ayol qahramonning shaxsiy erkinligi va jamiyat kutgan rollari o'rtasidagi qarama-qarshilikni yoritishdir.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot "Oyimtilla" va "Bonu" romanlarida ayol taqdiri va gender muammosini o'rganishga bag'ishlandi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki asarda ayol qahramonlarning hayoti, oiladagi o'rni va jamiyat bilan aloqasi milliy mentalitet va tarbiyaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq.

"Oyimtilla" romanida ayol qahramonlar ko'proq oilaviy majburiyatlar va milliy qadriyatlar bilan chegaralangan bo'lsa, "Bonu"da qahramonlar shaxsiy erkinlik va tanlov imkoniyatlariga intiladi. Shu nuqtai nazardan, ikki roman orqali o'zbek adabiyotida ayolning taqdiri va gender muammosining turlicha badiiy talqini, shuningdek, milliy madaniyat va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi qarama-qarshiliklar aniq ko'rsatildi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, adabiyot orqali ayol obrazini o'rganish nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatlarni ham chuqur anglashga imkon beradi. Tadqiqot ayol taqdiri, gender muammosi va milliy mentalitet o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi, bu esa o'zbek adabiyoti va jamiyatini yanada kengroq kontekstda tushunishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qurolboy qizi Z. Oyimtilla. – T.: Adabiyot nashriyoti, 2015.
2. Mirzo I. Bonu. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.
3. Hardy T. Tess of the d'Urbervilles. – London: Penguin Classics, 2006.
4. Khot M. Gender and literature: the role of women in society. – New York: Routledge, 2012.
5. Said E. Culture and imperialism. – London: Vintage, 2003.
6. Karimova N. O'zbek adabiyotida ayol obrazining rivojlanishi // *O'zbek tili va adabiyoti*. – 2018. – T. 4. – № 2. – B. 45–53.
7. Qizi H. Z. M. Women's roles and gender portrayal in Thomas Hardy's works // *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*. – 2024. – T. 2. – № 57. – B. 344–347.
8. Hamzayeva Z. Bonu romanida ayol obrazining dekadentizm nuqtayi nazaridan talqini: ijtimoiy inqiroz va qadriyatlar ziddiyati // *Zarubezhnaya lingvistika i lingvodidaktika*. – 2025. – T. 3. – № 2. – B. 17–22.
9. Qizi H. Z. M. Taqdir, axloq va ayol qismati: "Tess of the d'Urbervilles" va "Bonu" romanlarining qiyosiy tahlili // *Research Focus*. – 2025. – T. 4. – maxsus son 1. – B. 184–186.
10. Hamzayeva Z. "Tess of the d'Urbervilles" va "Bonu" romanlarida sof va jamiyatda ustuvor axloqiy tamoyillar ziddiyati // *Acta NUUZ*. – 2025. – T. 1. – № 1.4.1. – B. 332–333.